«T A S D I Q L A N G A N»
O’zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
26 iyul 2013 yilda.
O’zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
14.11.2012 yildagi № 47-sonli bayonnoma.

«BUPARVALEK» PREPARATINI YIRIK QORAMOLNING TEYLERIOZLARINI DAVOLASH VA PROFILAKTIKA QILISH UCHUN QO’LLANISHI BO’YICHA YO’RIQNOMA

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

1.1. «Buparvalek» – yirik qoramolning teyleriozlarini davolash va profilaktika qilish uchun mo’ljallangan inyeksiyalar uchun eritma shaklidagi dori preparati
1.2. Preparat qizil la’l rangli, ko’rinuvchan mexanik aralashmalari bo’lmagan shaffof, steril eritmadir. 1 ml preparat ichida 50 mg buparvakvon, shuningdek qo’shimcha moddalar mavjud.
1.3. «Buparvalek» shisha yoki polimer idishlarda 10; 20; 50; 100; 200 va 250 ml dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
Preparat ehtiyotlik bilan (B ro’yxati bo’yicha), quruq, qorong’i joyda, 0°C dan +25°C gacha bo’lgan haroratda saqlanadi. Preparatning belgilangan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati –2 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Buparvakvon ham shizontlar bosqichidagi, ham piroplazmalar bosqichidagi teyleriyalarga nisbatan faol ta’sir etadi.
Buparvakvonning ta’sir etish mexanizmi hozirgi paytda to’liq aniqlanmagan. Taxminan, u teyleriyalarning mitoxondriyalarida elektronlar ko’chishi mexanizmini izdan chiqaradi. Buparvakvonni qo’llash hujayralar tuzilmalari darajasida parazitlarning sitoplazmasida kuchayib boruvchi vakuollashuvga olib keladi, vaqt o’tishi bilan bu parazitning tashqi membranalari va yadroviy membranalari tuzilmasining buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, buparvakvon teyleriyalar parazitlik qiluvchi hujayralarning hujayra ichidagi tuzilmalarini (shu jumladan mitoxondriyalarni) shikastlamaydi.
2.2. Mushak ichiga kiritilganda preparat to’qimalarda uzoq saqlanadi. Buparvakvonning yarim chiqarilish davri – 7 kunga yaqin.

3. QO’LLASH TARTIBI

3.1. «Buparvalek» yirik qoramolga Theiria parva, T. annulata, T. mutans, va T. Orientalis tomonidan qo’zg’atiladigan teyleriozda, davolash va profilaktika maqsadida belgilanadi.
3.2. Preparat bir marotaba, hayvonning 20 kg tirik vazniga 1 ml preparat dozasida qo’llanadi, bu 1 kg vazniga 2,5 mg buparvakvonni tashkil etadi. Preparatni kiritish usuli – mushak ichiga, bo’yin sohasiga kiritiladi.
Og’ir holatlarda preparat birinchi kiritishdan keyin 48-72 soatdan so’ng, xuddi shunday dozada takroriy qo’llanadi.
3.3. Alohida ko’rsatmalar: Bitta inyeksiya joyiga 10 ml dan ortiq preparatni kiritish tavsiya etilmaydi. Zarur bo’lganda, kiritilgan doza yarmisidan bo’linadi va bo’yinning ikki tomonidan kiritiladi.
3.4. Nojo’ya ta’siri: Inyeksiya joyida ba’zan mahalliy, og’riqsiz shishlar paydo bo’lishi mumkin, ular vaqt o’tib, o’zi yo’qoladi.
3.5. Qo’llash mumkin bo’lmagan holatlar: Preparatni teri ostiga yoki tomirning ichiga kiritish mumkin emas.
3.6. Hayvonlarni go’sht uchun so’yish preparatni kiritish to’xtatilganidan keyin 42 kundan so’ng ruxsat etiladi. Preparatni oxirgi kiritishdan keyin 2 sutka ichida sutni oziq-ovqat maqsadida ishlatish taqiqlanadi.

4. EHTIYOT CHORALARI

4.1 Preparat bilan ishlaganda shaxsiy gigiyena choralariga va xavfsizlik texnikasi qoridalariga rioya qilish lozim. Preparat teriga yoki shilliq pardalarga tasodifan tekkan holda, uni darhol ko’p miqdordagi suv bilan yuvish kerak.
4.2 Ishlash paytida ichish, chekish va ovqat yeyish taqiqlanadi.
4.3 Ish tugaganidan keyin qo’llarini sovun va iliq suv bilan yaxshilab yuvish; qo’lqoplarini yuvish va quritish lozim.
4.4 Preparatning idishini oziq-ovqat maqsadlari uchun ishlatish taqiqlanadi.

5. E’TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

5.1 Preparatni qo’llashdan keyin asoratlar aniqlangan holda, ushbu seriyadan foydalanish to’xtatiladi va bu haqda O’zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga (700178, Toshkent shahri, Qoraqamish 2/4 dahasi, A.Yunusov ko’chasi, 1a-uy) va preparatni ishlab chiqaruvchiga bildiriladi.
Ayni paytda O’zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga hayvonlarda asoratlarni yuzaga keltirgan preparat seriyasining namunalarini, asoratlarning batafsil ta’rifi bilan birga, yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TSh 64-00483044-60:2016

biveco®
biveco.com